

“GLOBALLASHUV SHAROITIDA TIL VA MADANIYATNING O’ZARO MUNOSABATI”



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-27-306-312>

Asadov Farrux Ilyos o’g’li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

XM fakulteti 3-kurs talabasi

E-mail: farrux2140@icloud.com

Ilmiy rahbar: Husainova Gulnoza Shuxratovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Sharq tillari” kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonining til va madaniyatga ta’siri, ularning o’zaro uzviy bog’liqligi, milliy madaniyatlarning o’zgarib borishi hamda zamonaviy dunyoda madaniy jarayonlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot bilan aloqador jihatlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida madaniy o’zlik muommosi va tilning strategik resurs sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar. Globallashuv; til; madaniy identitet; madaniyatlararo muloqat; kommunikatsiya; integratsiya.

KIRISH

XXI asr insoniyat taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Axborot texnologiyalari, raqamli kommunikatsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya, transmilliy jarayonlar va madaniy almashinuvlar globallashuv deb ataluvchi murakkab jarayonni shakllantirdi. Bugungi kunda globallashuv nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy hodisa, balki chuqur madaniy jarayon sifatida namoyon bo’lmoqda. Til va madaniyat insoniyat jamiyatining eng muhim ijtimoiy asoslaridan hisoblanadi. Til – xalqning ruhi, madaniyat esa uning tarixiy xotirasi va ijtimoiy qiyofasidir. Globallashuv sharoitida esa aynan til va madaniyat eng kuchli transformatsiyaga uchrayotgan ijtimoiy institutlar sifatida namoyon bo’lmoqda. Bir tomondan, globallashuv madaniyatlararo yaqinlashuv, o’zaro anglashuv va integratsiyani kuchaytirsa, ikkinchi tomondan milliy tillar va madaniyatlarning yo’qolib ketish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida til va madaniyat masalasi bugungi ilm-fan, siyosat, diplomatiya va ta’lim sohalarining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi globallashuv sharoitida til va madaniyatning o’zaro

munosabatini chuqur ilmiy tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritish hamda milliy madaniyatni asrab-avaylash yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Til va madaniyat tushunchalarining nazariy asoslari.

Til – inson jamiyatida aloqa vositasi bo'lish bilan birga, tafakkur, idrok, ma'naviyat va madaniyatni uzatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Til orqali inson o'z fikrini ifoda etadi, tajriba almashadi, tarixiy xotirani saqlaydi hamda ijtimoiy ongni shakllantiradi. F. de Sossyur tilni jamiyat tomonidan qabul qilingan belgilar tizimi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, til – ijtimoiy hodisa bo'lib, u individ emas, balki jamiyat tomonidan boshqariladi. Til insonning borliqni anglash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bugungi globallashtirilgan dunyoda til nafaqat muloqot vositasi, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir quroliga ham aylanib bormoqda. Ingliz tilining global hukmronligi buning yaqqol misolidir. U nafaqat fan, texnika, internet, balki diplomatiya va biznesning asosiy tiliga aylandi. Madaniyat – insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuyi bo'lib, u xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an'analar, axloqiy me'yorlari, san'ati, dini va tafakkurini o'z ichiga oladi. E. Teylor tomonidan berilgan klassik ta'rifga ko'ra, madaniyat – bilimlar, e'tiqodlar, san'at, axloq, qonun-qoidalar, urf-odatlar va jamiyat a'zosi sifatida inson tomonidan o'zlashtirilgan barcha qobiliyatlar majmuasidir. Madaniyat ijtimoiy vorislik orqali avloddan-avlodga o'tadi. Til esa ana shu madaniy merosni uzatuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Demak, til va madaniyat ajralmas bir butunlikni tashkil etadi. Til va madaniyat bir-birini shakllantiruvchi va to'ldiruvchi tizimlardir. Til madaniyatni ifodalasa, madaniyat til orqali yashaydi. Har bir til xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va madaniy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilidagi hurmat shakllari, murojaat madaniyati, qarindoshlik terminlari bevosita milliy madaniyatimizning aksidir. G'arb tillarida esa individualizm ustuvor bo'lgani sababli murojaat shakllari soddaroq tashkil topgan. Globallashtirish jarayoni esa ana shu til-madaniyat uyg'unligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Globallashtirish tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari.

Globallashtirish — hozirgi zamon dunyosining eng muhim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlaridan biri bo'lib, u dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalarning tobora kuchayib, o'zaro chambarchas bog'lanib borishi jarayonini anglatadi. Mazkur jarayon natijasida dunyo tobora “yagona maydon”ga aylanib bormoqda. Ya'ni, davlatlar, jamiyatlar va xalqlar o'rtasidagi chegaralar nisbiy tus olib, har bir hududda sodir bo'layotgan voqealar boshqa mintaqalarga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Amerikalik mashhur sotsiolog A. Giddens globallashtirishni “mahalliy voqealarning global hodisalarga, global jarayonlarning esa mahalliy hayotga ta'sir qilishi” jarayoni sifatida izohlaydi.

Ushbu ta’rif globallashuvning ikki tomonlama — ham yuqoridan pastga, ham pastdan yuqoriga yo’nalgan murakkab ta’sir mexanizmini yaqqol ochib beradi. Globallashuv bir qator muhim xususiyatlarga ega. Avvalo, axborot oqimlarining mislsiz tezlashuvi ushbu jarayonning eng muhim belgilaridan biridir. Zamonaviy internet texnologiyalari, sun’iy yo’ldosh tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot bir zumda butun dunyoga tarqalmoqda. Shuningdek, transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi, yirik xalqaro korporatsiyalarning global iqtisodiy jarayonlarda yetakchi o’rin egallashi globallashuvning muhim ko’rinishlaridan sanaladi. Bundan tashqari, madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi, global til maydonining shakllanishi hamda madaniy standartlashuv jarayonining kuchayib borishi globallashuvning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Globallashuv jarayoni til va madaniyatga bir vaqtning o’zida ikki asosiy yo’nalishda ta’sir ko’rsatadi. Birinchi yo’nalish integratsiya va yaqinlashuv bo’lib, bunda turli xalqlar, madaniyatlar va tillar o’rtasida o’zaro muloqot, tajriba almashinuvi va hamkorlik kuchayadi. Ikkinchi yo’nalish esa assimillatsiya va yo’qolish xavfi bo’lib, bunda ayrim kichik millatlar, tillar va madaniyatlar kuchli global ta’sir ostida o’z mavqeyini yo’qotib boradi. Bugungi kunda minglab kichik tillar yo’qolib ketish arafasida turgani ushbu jarayonning eng achinarli oqibatlaridan biridir. UNESCO ma’lumotlariga ko’ra, har ikki haftada dunyoda kamida bitta til muomaladan chiqib bormoqda. Bu holat esa bevosita madaniy xilma-xillikning qisqarishiga, ayrim xalqlarning tarixiy xotirasi va madaniy merosining yo’qolishiga olib kelmoqda.

Globallashuvning milliy madaniyatga ta’siri.

Globallashuv jarayoni milliy madaniyatlar taraqqiyotiga murakkab va ziddiyatli ta’sir ko’rsatmoqda. Bir tomondan, bu jarayon turli xalqlar madaniyatining bir-biriga yaqinlashuvi, tajriba almashinuvi, ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ikkinchi tomondan esa, globallashuv ayrim milliy madaniyatlarning zaiflashuvi, madaniy standartlashuv va hatto ayrim madaniy qadriyatlarning yo’qolishi xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Milliy madaniyat — bu xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy ongi, turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti, san’ati va tili bilan chambarchas bog’liq tizimdir. Globallashuv sharoitida aynan mana shu milliy xususiyatlar kuchli tashqi madaniy oqimlar ta’siriga uchramoqda. Ayniqsa, media makon, internet, ijtimoiy tarmoqlar, global kino industriyasi va pop-madaniyat milliy madaniyatlarning transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Bugungi kunda ayrim xalqlar orasida milliy qadriyatlarga befarqlik, an’analar va urf-odatlarining zamonaviy madaniyat ostida ikkinchi darajaga tushib borishi holatlari kuzatilmoqda. Yoshlarda g’arbona turmush tarzi, kiyinish madaniyati, muloqot shakli, musiqiy did va hayotiy qarashlarning ustunlik qilishi globallashuvning bevosita madaniy ta’siri sifatida

namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, globallashuv milliy madaniyatni dunyo miqyosida tanitish uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. Internet, raqamli platformalar, xalqaro festival va madaniy loyihalar orqali milliy san'at, milliy musiqa, adabiyot va an'analar global auditoriyaga chiqmoqda. Masalan, o'zbek milliy raqslari, maqom san'ati, milliy kiyimlar va xalq og'zaki ijodi bugungi kunda xorijliklar tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Globallashuv bilan chambarchas bog'liq bo'lgan tushunchalardan biri — bu ommaviy madaniyatdir. Ommaviy madaniyat deganda keng ommaga mo'ljallangan, tijorat maqsadiga xizmat qiluvchi, soddalashtirilgan va tez tarqalib ketadigan madaniyat mahsulotlari tushuniladi. Ularga pop-musiqa, seriallar, reklama, ijtimoiy tarmoqlar, global kinofilmlar, shou-biznes mahsulotlari kiradi. Ommaviy madaniyat ko'pincha milliy madaniyatning an'anaviy shakllarini ikkinchi o'ringa suradi. Chunki u tez tarqaladi, oson qabul qilinadi va tijorat uchun qulaydir. Natijada ayrim milliy madaniy namunalar keng omma orasida o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Madaniy imperializm esa boshqa mamlakatlar madaniyatiga nisbatan kuchli davlatlarning madaniy ustunligini anglatadi. Bugungi kunda bu, asosan, G'arb madaniyatining dunyo bo'ylab keng tarqalishida namoyon bo'lmoqda. Hollywood filmlari, Netflix seriallari, g'arb pop-musiqasi, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlar ko'pchilik yoshlarning tafakkuriga, didiga va hayotga bo'lgan qarashlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Madaniy imperializm natijasida ayrim jamiyatlarda milliy qadriyatlarining zaiflashuvi, mahalliy san'at va an'alarining ikkinchi o'ringa tushib qolishi hamda global madaniy standartlarning ustuvor bo'lib borishi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bunday jarayonlar natijasida milliy o'zlik, tarixiy xotira va an'anaviy madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rnini tobora susayib borish xavfi yuzaga keladi. Ayniqsa, ommaviy madaniyat mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida an'anaviy san'at turlari, milliy kiyinish uslubi, xalq og'zaki ijodi va urf-odatlar yoshlar orasida o'z jozibasini yo'qotishi mumkin. Biroq shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ommaviy madaniyatni mutlaqo salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Chunki u jamiyat uchun yangi ijodiy imkoniyatlar, keng auditoriya bilan samarali aloqa o'rnatish hamda innovatsion madaniy shakllarning paydo bo'lishiga xizmat qilmoqda. Global axborot makoni orqali san'at, musiqa, adabiyot va madaniy loyihalar keng ommaga tez yetib borayotgani buning yaqqol dalilidir. Eng muhimi, milliy madaniyat ushbu jarayon davomida o'zligini yo'qotib qo'ymasligi, aksincha, zamonaviy shakllar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanib borishi lozim.

Globallashuv jarayonining eng muhim lingvistik natijalaridan biri — ingliz tilining dunyo miqyosida global aloqa tiliga aylanishidir. Bugungi kunda ingliz tili fan, diplomatiya, biznes, axborot texnologiyalari, internet va ommaviy

madaniyatning asosiy tili sifatida keng qo'llanilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, internetdagi kontentlarning katta qismi aynan ingliz tilida yaratiladi. Xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar, ilmiy anjumanlar va diplomatik muzokaralarda ingliz tili asosiy muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Ingliz tilining global hukmronligi bir tomondan ijobiy natijalarni ham keltirib chiqarmoqda. Xalqaro muloqot yengillashmoqda, ilmiy bilimlar tez tarqalmoqda, global hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, bu holat milliy tillarning mavqeiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayrim mamlakatlarda milliy tilning o'rni pasayib, ingliz tiliga haddan tashqari ustuvor ahamiyat berilmoqda. Natijada ayrim yoshlar orasida ona tiliga nisbatan befarqlik kuchaymoqda. O'zbekiston misolida ham ingliz tili ta'lim, biznes va diplomatiyada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq davlat siyosati darajasida o'zbek tilining rivoji, nufuzi va davlat tili sifatidagi mavqei mustahkamlanib bormoqda. Shu muvozanatni saqlash globallashuv sharoitida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv eng avvalo yoshlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya orqali global madaniyat bilan eng tez aloqaga kirishmoqda. Bugungi yoshlar bir vaqtning o'zida ham milliy, ham global madaniyat ta'sirida shakllanmoqda. Yoshlar madaniyatida quyidagi o'zgarishlar yaqqol sezilmoqda: kiyim-kechak va tashqi ko'rinishda global moda trendlari, muloqotda xorijiy so'z va iboralarning ko'payishi, musiqa va san'atda pop madaniyatning ustuvorligi, hayotga pragmatik va individualistik yondashuvning kuchayishi. Bu jarayon bir tomondan yoshlarning dunyoqarashini kengaytirs, ikkinchi tomondan milliy qadriyatlardan uzoqlashish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli ta'lim muassasalarida, oilada va jamiyatda yoshlar ongida milliy madaniyatga hurmat, tarixiy xotira va madaniy mas'uliyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuvning eng zamonaviy ko'rinishlaridan biri — raqamli madaniyatdir. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt, bloglar va onlayn platformalar yangi madaniy muhitni shakllantirmoqda. Bugungi kunda insonning kundalik hayoti virtual makon bilan bevosita bog'langan.

Globallashuv va identitet muammosi.

Globallashuv jarayonida eng murakkab va dolzarb muammolardan biri bu — madaniy identitet masalasidir. Madaniy identitet insonning o'zini muayyan millat, madaniyat, til va tarixga mansub deb his etishidir. Aynan mana shu identitet insonning dunyoqarashi, hayot tarzi, qadriyatlari va ijtimoiy xatti-harakatlarini belgilab beradi. Globallashuv sharoitida esa inson bir vaqtning o'zida bir nechta madaniy ta'sirlar ostida yashamoqda. Global axborot oqimi, ommaviy madaniyat, internet tili va xorijiy turmush modellari milliy madaniy identitet bilan raqobatga kirishmoqda. Natijada ayrim yoshlar orasida milliy qadriyatlarga loqaydlik, ona

tiliga befarqlik, begona madaniyatga haddan tashqari taqlid va tarixiy xotiraning zaiflashuvi kabi holatlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, globallashuv madaniy identitetni yanada anglash va mustahkamlash uchun ham imkoniyat yaratmoqda. Chunki inson global makonda o'z madaniyatini boshqalar bilan solishtirish orqali uning qadr-qimmatini chuqurroq his qila boshlaydi. Demak, globallashuv identitet uchun faqat xavf emas, balki rivojlanish va o'zligini anglash imkoniyati hamdir. Bugungi zamonaviy dunyoda til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki strategik siyosiy va madaniy resurs sifatida ham qaralmoqda. Davlatlar o'z tilini xalqaro maydonda targ'ib qilish orqali o'zining madaniy ta'sir doirasini kengaytirishga intilmoqda. Bu jarayon “yumshoq kuch” (soft power) tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, AQSh ingliz tili orqali global axborot makonida yetakchilik qilmoqda, Xitoy konfutsiy institutlari orqali xitoy tilini keng targ'ib etmoqda, Fransiya frankofoniya tizimi orqali fransuz tilini dunyoga yoymoqda, Turkiya esa turk tilini global turkiy makon doirasida mustahkamlab bormoqda. Til orqali davlatlar nafaqat madaniyatni, balki o'z siyosiy g'oyalarini, ijtimoiy qadriyatlarini va dunyoqarashini ham eksport qilmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida til siyosati har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy til va madaniyatni tiklash hamda rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy tarix, qadriyatlar va an'analarni qayta tiklash, madaniyat sohasiga e'tiborning kuchayishi bu yo'ldagi muhim qadamlar bo'ldi. Bugungi kunda O'zbekistonda globallashuv bilan birga ingliz, rus, koreys va xitoy tillarini o'rganishga yuqori talab, xalqaro ta'lim dasturlari va akademik almashinuvlar, xorijiy OAV va internet kontentlariga keng kirish, chet el madaniyatining yoshlar orasida keng tarqalishi kabi jarayonlar parallel kechmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida o'zbek tilining nufuzi mustahkamlanmoqda. O'zbek tiliga davlat tili sifatida e'tibor kuchayib, rasmiy hujjatlar, ilmiy ishlar, qonunchilik va ta'lim tizimi tobora ko'proq o'zbek tilida olib borilmoqda. Milliy madaniyatni asrab-avaylash va yoshlar ongida milliy o'zlikni mustahkamlash uchun milliy ta'lim modelining rivoji, tarixiy merosni keng targ'ib qilish, milliy san'at va adabiyotni qo'llab-quvvatlash, ommaviy madaniyatga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonida til va madaniyatni asrab-avaylash uchun bir qator strategik yo'nalishlar muhim hisoblanadi. Avvalo, ta'lim orqali milliy qadriyatlarni mustahkamlash, ya'ni maktab va oliy ta'lim tizimida ona tili, tarix va madaniyatga alohida e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, milliy OAV va internet kontentini rivojlantirish, raqamli makonda milliy tilning ulushini oshirish, madaniyatlararo

muloqotni kuchaytirish orqali milliy qadriyatlarni global maydonda targʻib qilish muhimdir. Eng asosiysi esa yoshlar ongida madaniy immunitetni shakllantirish, yaʼni ommaviy madaniyatga tanqidiy yondashuvni rivojlantirish va til siyosatini izchil olib borish orqali davlat tilining jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida til va madaniyat insoniyat taraqqiyotining eng muhim ijtimoiy-falsafiy muammolaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Globallashuv bir tomondan xalqlar oʻrtasida yaqinlik, integratsiya, ilmiy-madaniy hamkorlikni kuchaytirs, ikkinchi tomondan milliy tillar va madaniyatlarning yoʻqolish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Til va madaniyat har bir millatning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ular nafaqat aloqa vositasi, balki tarix, tafakkur, qadriyat va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi kuchdir. Globallashuv sharoitida bu boyliklarni asrab-avaylash, zamonaviy sharoitga mos rivojlantirish va yoshlar ongida mustahkamlash har bir jamiyat uchun muhim strategik vazifa boʻlib qolmoqda. Oʻzbekiston misolida ham globallashuv jarayoni chuqur kechmoqda. Shu bilan birga, milliy til va madaniyatni saqlash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi boʻlib qolmoqda. Demak, globallashuv va milliylik bir-biriga zid emas, balki toʻgʻri muvozanat bilan uygʻunlashtirilishi zarur boʻlgan jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Giddens A. The Consequences of Modernity. — Cambridge: Polity Press, 1990. <https://voidnetwork.gr/wp-content/uploads/2016/10/The-Consequences-of-Modernity-by-Anthony-Giddens.pdf>
2. Rasulov Ravshanxoʻja. Umumiy tilshunoslik asoslari. — Toshkent, 2013. https://www.renessans-edu.uz/files/books/2024-11-27-05-15-17_2413a6c7b245c8af4235e53e9a5d03dd.pdf
3. UNESCO. Atlas of the World's Languages in Danger. — Paris, 2010. <https://uploads.guim.co.uk/2024/09/30/UNESCO Atlas of Languages 2010.pdf>
4. Castells M. The Information Age. https://deterritorialinvestigations.wordpress.com/wp-content/uploads/2015/03/manuel_castells_the_rise_of_the_network_societybookfi-org.pdf
5. Toʻraev B. Madaniyatshunoslik asoslari. <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/03/Madaniyatshunoslik-asoslari.2006.pdf>
6. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. <https://download.e-bookshelf.de/download/0003/8401/07/L-G-0003840107-0007910400.pdf>